

HOMILADORLIK DAVRIDA GEPATITNING KECHISH XUSUSIYATLARI, UNING HOMILAGA TA'SIRI.

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Termiz filiali Mikrobiologiya,
jamoat salomatligi gigiyena va menejment kafedrasasi assistenti.

Jurayeva Muxabbat Ergashevna.

muhabatjoraeva078@gmail.com

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda gepatit viruslari, xususan, gepatit B va C turlari dunyo bo'yicha keng tarqalgan bo'lib, homilador ayollar salomatligi uchun jiddiy xavf tug'diradi chunki hozirgi kunda gepatit homilador ayollar orasida uchraydigan xavfli infeksiyalardan biri hisoblanadi. Gepatit virusining homiladorlik davrida faol kechishi homilada intrauterin infeksiya, erta tug'ruq, past tana vaznli tug'ilish va hatto homila nobud bo'lishi kabi asoratlarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli, gepatitni erta aniqlash, to'g'ri boshqarish va ona-homila juftligini xavfsiz saqlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi: Homiladorlik davrida gepatit (asosan B va C) infeksiyasining klinik kechishini o'rganish, uning homila va tug'ilish jarayoniga bo'lgan ta'sirini perinatal davrdagi asoratlarga ta'sirini aniqlash, shuningdek, profilaktika va boshqaruv choralarini takomillashtirish.

Material va usullar: Tadqiqotda 2022–2024 yillar oralig'ida hepatit B yoki C tashxisi qo'yilgan 80 nafar homilador ayol kuzatuvga olingan. Ular klinik, laborator tahlillar (ALT, AST, HBsAg, anti-HCV), ultratovush tekshiruvlari tekshiruvlari asosida tahlil qilindi. Nazorat guruhi sifatida gepatit aniqlanmagan 80 nafar homilador ayol ma'lumotlari bilan solishtirildi. Ma'lumotlar statistik tahlillar uchun SPSS dasturidan foydalanildi, homila holati, tug'ruq yoshi, bola vazni va asoratlari bilan bog'liqligi o'rganildi.

Xulosa. Tadqiqot natijalariga ko'ra, gepatit B va C bilan kasallangan homilador ayollarda tug'ruq asoratlari, shu jumladan, erta tug'ruq, homila gipotrofiya holatlari va perinatal infeksiya xavfi yuqori bo'lishi aniqlangan. Ayniqsa, virusli yuklama yuqori bo'lgan ayollarda xavf yanada ortadi. Shu sababli, homiladorlikning ilk bosqichidanoq gepatitga skrining o'tkazish, faol monitoring va kerakli antiviral terapiyani, individual yondashuv asosida nazorat va davolash choralarini qo'llash ona va bola salomatligini saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.